



XALQARO SUG`URTA BOZORI VA SUG`URTA OPERATSIYALARI

Sharipova Ozoda Baxshilloeyeva

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15525824>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 27th May 2025

KEYWORDS

sug'urta, sug'urta tashkilotlari, moliyaviy resurslar, moliyaviy barqarorlik, risk.

ABSTRACT

Mazkur tadqiqot ishida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish masalalarini o'rganishda sug'urta sohasini moliya-kredit tizimining qismi sifatida o'rganish, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni, O'zbekistonda milliy sug'urta bozori joriy holatini tahlil qilish va risk menejment orqali sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari tadqiq qilingan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kirish

Zamonaviy sug'urta bozori har qanday mamlakat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarni moliyaviy xavflardan himoya qiladi. Ko'rsatilayotgan xizmatlarning ustida ishlanishi sug'urta kompaniyalari uchun ayni damdagi jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida, raqobatning tobora ortib borayotkan paytda hamda eng asosiysi bo'lgan sug'urtaga qiziqish bildirgan iste'molchilarning xohish – talablari tez sur'atlarda o'zagrib borayotgan sharoitida zaruraat uyg'otmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozori mamlakat moliya tizimining muhim elementi bo'lib, fuqarolar va tashkilotlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Sug'urta kutilmagan hodisalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va risklarni boshqarishda asosiy rol o'ynaydi. Shunga qaramay, strategik ahamiyatidan tashqari ushbu sohada ham duch kelinayotgan bir nechta muammolar mavjud. Aholining moliya savodxonligi darajasi yuqori emasligi, sug'urta xizmatlaridan foydalanish darajasining pastligi va raqamli texnologiyalarning yetarli pog'onagacha rivojlanmaganligi singarilar shular jumlasiga kiradi.

Adabiyotlar sharhi

Sug'urta XX asrda ishlab chiqilgan risklarni boshqarish nazariyasiga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra sug'urta mukofot evaziga xavfni bir subyektdan boshqasiga (sug'urtalovchiga) o'tkazishning asosiy vositasidir. Ushbu nazariyalar doirasida sug'urta xavfi, sug'urta mukofoti va sug'urta hodisasi kabi toifalar muhim tushunchalardir. Kennet Arrow singari olimlar, shu bilan birga, sug'urta sohasidagi xavf-xatar ma'lumotlariga ega bo'lgan axborot assimetriyasi ko'proq sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rib chiqildi.

Sug'urta bozorlarining rivojlanishi Piter Laszlo va Markus Esser kabi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilindi, ular sug'urta dinamikasi va ularning global iqtisodiyotdagi rolini tasvirlab berishdi. O'tkazilgan ishlarning natijasiga ko'ra ular sug'urta xizmatlarini ayni

damdagi turg'un bo'lmagan iqtisodiy holatga moslashtirish shu bilan mijozlarning paydo bo'layotgan ehtiyojlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan innovatsiyalarni yaratish haqida fikr bildirib o'tishgan. Oxirgi o'n yillik davomida raqamlashtirish va innovatsiyalarning rivojlanish bosqichlariga sug'urta sohasida alohida e'tibor berilmoqda.

Oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasidan sun'iy intellekt (AI), blockchain, narsalar Interneti (IoT) va katta ma'lumotlarning sug'urta bozorini yana ham o'zgartirish yo'lidagi o'rnini ko'rish mumkin. Akademiklarning aksariyat qismi, shu jumladan, Maykl Porter va Klaus Shvab raqamli texnologiyalarni biznes proseslarini qayta shakllantirish, operativlarning unumdorligini va oldindan ko'ra bilishni taxmin qilishni, riskni hisobga oldindan hisoblay olish bilab bir qatorda iste'molchiga xizmat ko'rsatishdagi standartlarni ustida ishlash kerak ekanligi ta'kidlab o'tishadi.

Tahlil va natijalar

Hozirda O'zbekiston sharoitidagi sug'urta bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarning oldidagi vazifalaridan biri faqatgina rezidentlar uchun emas, balki shu bilan birga xorijlik mijozlarga ham mos keluvchi ularning ham ishonchini oqlay oladigan xizmat turlarini sonini ko'paytirish bilan sifatini ham oshirish kerakligi, mintqaviylikni kengaytirish va moliyaviy resurslardan optimal foydalangan holda boshqarish kabilar oldimizdagi asosiy muammolardan hisoblanib kelinmoqda. Tadrijiy tarzda insoniyatning rivojlanishi paytida sug'urta sohasi ham oliyaviy munosabatlarning ajralmas qismlaridan biri bo'lib iqtisodiyotga ta'sir etadigan omil bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy globallashtirish jarayonlari sharoitida sug'urta bozorining jadal va innovatsion rivojlanishi ushbu sohani chuqur nazariy va amaliy o'rganishni talab qiladi. Sug'urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining Markaziy segmenti bo'lib, uning keyingi rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, sug'urta faoliyati keng tarqalgan va barqarorlik omili hisoblangan ijtimoiy hodisa sifatida harakat qiladi. Milliy sug'urta bozorining rivojlanishini tahlil qilish va prognozlash korxonalar va aholi manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida sug'urta faoliyatini yanada rivojlantirish strategiyasini o'rganishni taqozo etadi.


"Sug'urta manfaatlarining kelib chiqishi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarining xavf potentsialida yotadi. Agar nomaqbul hodisa yuzaga kelishi ehtimoli yuzaga kelsa, tadbirkorlik sub'ekti o'z faoliyatini yo'qotishlar bilan davom ettirish xavfi mavjud. Agar bu yo'qotishlar sezilarli bo'lsa, bu moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda ishlab chiqarish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan baxtsiz hodisalar, yong'inlar, tabiiy ofatlar yoki boshqa kutilmagan hodisalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni qoplaydigan moliyaviy kafolatlar tizimini yaratish kerak" [Aripov, 2008].

Sug'urta faoliyatining asosiy maqsadi moliyaviy xavfsizlikning umume'tirof etilgan standartlariga javob beradigan baxtsiz hodisalar xavfidan ishonchli himoyani ta'minlashdir.

"Makroiqtisodiy nuqtai nazardan sug'urtaning eng muhim maqsadi ko'plab sug'urtalovchilar tomonidan to'langan mablag'larni to'plash va ularni iqtisodiyotga investitsiya qilishdir. Sug'urtaning investitsiya samaradorligi bankka qaraganda ancha yuqori, chunki sug'urta uzoq muddatli investitsiyalarning moliyaviy manbai hisoblanadi" [Sherbakov, Kostyayeva 2014].

Bozor munosabatlari va umuman iqtisodiy tizimning rivojlanishi natijasida sug'urtaning vazifalari va roli sezilarli darajada kengayib bormoqda. Sug'urta bozorini rivojlantirish uchun sug'urtaga bo'lgan talabni oshirish bo'yicha iqtisodiy rag'batlantirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va o'rganish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilishmoqda.

3-




rasm. Sug'urta mukofotlari

Manba. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Aholimizga sug'urta xizmatlarini taqdim etish orqali sug'urta kompaniyalariga kelib tushgan mukofotlarning uch yillik statistikalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2022 yilda sug'urta xizmatlaridan kelib tushgan mukofotlarning umumiy qiymati 6 231 726 million so'mni tashkil etdi. Ushbu summadan 8% (491 276 million so'm) majburiy sug'urta sohasiga tegishli bo'lsa, 68% (4 215 771 million so'm) ixtiyoriy sug'urta tarmog'iga, qolgan 24% esa hayot sug'urtasining ulushiga to'g'ri keladi.

2023 yilda sug'urta mukofotlarining umumiy hajmi 8 059 726 million so'mga yetdi. Bu summadan 8% (632 427 million so'm) majburiy sug'urtaga to'g'ri keladi, qolgan 88% (7 104 809 million so'm) ixtiyoriy sug'urtaga, 4% (322 491 million so'm) esa hayot sug'urtasining ulushiga to'g'ri keladi.

2024 yilning birinchi yarmida esa bu ko'rsatkichlar deyarli o'zgarmay qoldi va sug'urta xizmatlaridan kelib tushgan mukofotlarning umumiy hajmi 4 269 449 million so'mni tashkil etdi. Bu yerda majburiy sug'urtaning ulushi 7% (294 202 million so'm) bo'lsa, ixtiyoriy sug'urta 91% (3 896 122 million so'm) ni tashkil etdi. Hayot sug'urtasi esa uch yil davomida sezilarli darajada kamayib, 2% (79 125 million so'm) ga yetdi.



4-rasm. Sug'urta to'lovlari

Manba. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Diagrammada sug'urta to'lovlarini uchta asosiy sug'urta toifalari bo'yicha taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan: majburiy sug'urta, ixtiyoriy sug'urta va 2023 yil yanvar-iyun va 2024 yil yanvar-iyun oylari uchun hayotni sug'urtalash. To'lovlarning umumiy summalari trillionlab so'mlarda, shuningdek, har bir sug'urta turining umumiy to'lovlardagi foiz ulushlari ko'rsatiladi.

Ushbu o'sish sug'urta bozoridagi ijobiy tendensiyalarni namoyon etadi va bir qator omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bularga sug'urtalangan shaxslar sonining ortishi, sug'urta kompaniyalarining faolroq bo'lishi, mahsulotlar assortimentining kengayishi hamda bozorni tartibga solish tizimining takomillashishi kiradi. Ushbu omillar birgalikda sug'urta sohasining barqaror rivojlanishi va xizmatlarning sifati yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Majburiy sug'urtaning o'sishi (13% dan 15% gacha) ushbu himoya shakli sug'urta bozorining muhim qismi bo'lib qolayotganidan dalolat beradi va davlat ma'lum sohalarda majburiy sug'urta choralari kuchaytirishda davom etmoqda.

Ixtiyoriy sug'urta ulushining eksponensial o'sishi (56% dan 79% gacha) sug'urta kompaniyalari ushbu bozor segmentini faol ravishda rivojlantirayotganidan dalolat beradi. Aholining sug'urta himoyasi zarurligi to'g'risida xabardorligini oshirish, ayniqsa global iqtisodiy beqarorlik sharoitida, ixtiyoriy mahsulotlarning mashhurligidagi bunday sakrashni ham tushuntirishi mumkin.

Hayot sug'urtasi ulushining 31% dan 6% gacha pasayishi mijozlarning boshqa sug'urta turlariga e'tibor qaratishi yoki kompaniyalarning ushbu segmentdagi talab pasaygani uchun takliflarni qisqartirishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ikki davr uchun to'lov ma'lumotlarini tahlil qilish sug'urta bozori tarkibidagi sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ixtiyoriy sug'urta mijozlarning ehtiyojlarini yanada moslashuvchan tarzda qondiradigan sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabning o'sishini aks ettiruvchi o'sishning asosiy haydovchisiga aylanadi. Shu bilan birga, majburiy sug'urta ham o'sishni ko'rsatadi, bu tartibga solish choralari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Hayotni sug'urtalash ulushining pasayishi ushbu segmentdagi talabning pasayishini ko'rsatishi mumkin, ammo bozorning umumiy dinamikasi ijobiy bo'lib qolmoqda, bu uning keyingi rivojlanish istiqbollari ko'rsatadi.

2-jadval

Umumiy sug'urta mukofotlari:

Ko'rsatkichlar	30.06.2023		30.06.2024		O'zgarish %
	Mln . so'mda	Jamiga nisbatan % da	Mln . so'mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami	3 778 183	100%	4 269 449	100%	+13,0 %
Umumiy sug'urtadagi sug'urta tashkilotlari	3 581 805	95 %	4 190 324	98 %	+17,0 %
Hayotni sug'urta qilishdagi sug'urta tashkilotlari	196 378	5 %	79 125	2 %	-59,7 %

Manba. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2024 yil uchun O'zbekiston sug'urta bozori o'tgan yilgi tegishli ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etmoqda. Shunday qilib, bozorda sug'urta mukofotlari hajmi 2023-yil I chorakka nisbatan 13% ga oshdi va 4 269 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'zbekistonda majburiy sug'urta davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinadi va fuqarolar, biznes hamda davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir nechta muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizim, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, sug'urta bozorining barqarorligini oshirish va fuqarolarni turli xatarlar va kutilmagan holatlardan himoya qilishni maqsad qiladi.

2023 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta mukofotlarining umumiy hajmidagi majburiy sug'urta ulushi 35-40% ni tashkil etadi. Bu davlat nazoratining kuchayishi va majburiy sug'urtaning yangi turlarini joriy etish tufayli barqaror o'sib borayotgan bozorning katta qismidir. O'zbekiston moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi bir necha yil ichida, ayniqsa sug'urta shartnomalarini tuzish jarayonini osonlashtiradigan raqamli platformalar joriy etilgandan so'ng, TVEFJMSQ bo'yicha sug'urtalanganlar soni sezilarli darajada oshdi.

Majburiy sug'urtaning ahamiyatini aholi orasida tushuntirish va qonunlarga amal qilinishini nazorat qilish davlat tashabbuslari orqali ushbu sohaning o'sishiga yordam beradi. Bu, sug'urta tizimining samarali ishlashi va fuqarolarni unga jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, mamlakatda avtomobillar sonining ko'payishi TVEFJMSQ bo'yicha tuzilgan shartnomalar sonining ko'payishiga bevosita yordam beradi. Jarimalarni kuchaytirish va davlat tomonidan majburiy sug'urta standartlariga rioya etilishini nazorat qilish bozorni rag'batlantiradi. Davlat organlari sug'urta bozorini raqamlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda, bu esa sug'urta siyosatini sotib olish jarayonini soddalashtirib, aholi orasida sug'urta madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Majburiy sug'urtaning asosiy muammolaridan biri bu aholining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchining yetishmasligi. Bu to'lovlarning shaffofligi va nizolarni hal qilishda kechikishlar bilan bog'liq. Sug'urtaning majburiy xususiyatiga qaramay, barcha avtoullovchilar, ish beruvchilar yoki korxonalar qonuniy talablarga javob bermaydilar.

O'zbekistonda majburiy sug'urta fuqarolar va biznesni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Garchi ba'zi muammolar mavjud bo'lsa-da, davlat yordami va raqamli innovatsiyalar orqali sektor o'sishda davom etmoqda. Kelgusi yillarda bozorning yanada rivojlanishi kutilmoqda, ayniqsa tibbiy sug'urta kabi majburiy sug'urtaning yangi shakllari joriy etilishi bilan.

Majburiy sug'urta bozorida "O'zbekinvest" AJ, "Kafolat" AJ, "Alskom" AJ va "ApexInsurance" AJ kabi yirik sug'urta kompaniyalari ustunlik qiladi. Ushbu kompaniyalar majburiy sug'urta segmentida, shu jumladan TVEFJMSQ va ish beruvchilarning javobgarligini sug'urtalashda katta ulushga ega. Buni quyidagi jadvalda berilgan sof sug'urta mukofoti ko'rsatkichi asosida keltirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov I, Abduraimova M, Abdullayeva N (2020) "Sug'urta nazariyasi va amalyoti".
2. Qo'ldoshev Q.M. (2020). "Sug'urta texnologiyalari".
3. Robert P, Cary Schneider, Jeanne Salvatore, Steven N. (2024) "Insurance handbook a guide to insurance: what it does and how it works".
4. W. Klein, Mark J. Browne "Insurance Operations"
5. Bryan Falchuk "The Future of Insurance"
6. Bernardo Nicoletti "Digital Insurance : Business Innovation in the Post- Crisis Era"
7. George E. Rejda, Micheal J. Mc Namara " Risk Management and insurance"
8. Micheal A. McGavik "The new insurance : How Technology is changing the Industry"

9. John A. Goodman "Customer Experience 3.0 : High – profit strategies in the age of techno service"



INNOVATIVE
ACADEMY